DALILLARNI SOXTALASHTIRISH (QALBAKILASHTIRISH) JINOYATINING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV BELGILARI

Mo’minova Dilnoza Muhiddin qizi
Buxoro davlat universiteti
Yurisprudensiya kafedrasi o’qituvchisi
e-mail:mominovad99@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur tezisda jinoyat tushunchasi, jinoyat tarkibi elementlari, dalillarni soxtalashtirish(qalbakilashtirish) jinoyati, mazkur jinoyatning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni, maxsus subyekt tushunchasi yoritib berilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar va nazariyotchi olimlarning qarashlari asosida dalillarni soxtalashtirish jinoyati tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: jinoyat, javobgarlik, jinoyat obyekti va obyektiv tomoni, jinoyat subyekti va subyektiv tomoni, maxsus subyekt, isbotlash.

Biz bilamizki, qilmish o’z-o’zidan jinoyat deb topilmay, qonun chiqaruvchi tomonidan chiqarilgan jinoyat-huquqiy normalarda, aniqrog’i, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi aniq moddalarida belgilangan jinoyat belgilari bilan solishtirilgandan keyingina shunday to’xtamga kelish mumkin.

Jinoyat tarkibining barcha belgilarini tashkil etuvchi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli asosdir, ya’ni jinoyat-huquqiy ta’qibni amalga oshiruvchi organ gumonlanuvchi (ayblanuvchi)ni jinoiy javobgarlikka tortish uchun uning qilmishida jinoyat tarkibi mavjudligini aniqlashi lozim.

JK Maxsus qismi moddalari jinoyatning konstruksiyasini, ya’ni obyektiv va subyekt elementlarini ajratib ko‘rsatadi.

Jinoyat tarkibi elementlari quyidagilar hisoblanadi:

– jinoyat obyekti;

– jinoyatning obyektiv tomoni;

– jinoyatning subyekt tomoni;

– jinoyat subyekti.

Obyektiv elementlarga jinoyat tarkibining obyekti va obyektiv tomoni kiradi.

Subyekt elementlarga subyekt va subyekt tomon kiradi.

Jinoyat tarkibi elementlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Agar sodir etilgan qilmishda yuqorida ko‘rsatilgan elementlardan birortasi mavjud bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikka tortishga asos ham bo‘lmaydi.

Jinoyatning obyekti – jinoyat qonuni bilan qo’riqlanadigan ijtimoiy munosabat hisoblanadi. Masalan, shaxsning hayoti, sog’lig’i, sha’ni, qadr-qimmati, mol-mulki, tinchlik va insoniyat xavfsizligi obyekt bo’lishi mumkin.

Jinoyatning obyektiv tomoni esa - tajovuzning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalaydigan, jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektga qarshi qaratilgan ijtimoiy xavfli tajovuzning tashqi holatini xarakterlovchi obyektiv, ijtimoiy va yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar yig‘indisidir.

Jinoyatning subyekti – 16 yoshga to’lgan, aqli raso, jismoniy shaxs hisoblanadi. 16 yosh bu – umumiy subyekt yoshi hisoblanadi. Sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi va boshqa mezonlarni inobatga olgan holda ayrim jinoyatlar uchun 14 yosh yoki 18 yosh ham bo’lishi mumkin.

Jinoyatning subyektiv tomoni esa - aybdorning jinoyat qonunida jinoyat sifatida nazarda tutilgan, aybdor o‘zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan bo‘lgan ruhiy munosabati bo‘lib, uning aybi, motivi, maqsadi va his-tuyg‘usini ifodalaydi.

Dalillarni soxtalashtirish jinoyatining jamiyat uchun xavfliligi shundaki, soxta (sun’iy) dalillar mavjudligida sud tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini asossiz poymol qilinishi bilan bog‘liq noto‘g‘ri hukm chiqarishiga olib kelishi bilan ifodalanadi.

Sudning normal faoliyati, odil sudlovning manfaatlari, prokuratura, dastlabki tergov va surishtiruv organlarining normal faoliyatini ta’minlash

bo‘yicha munosabatlar ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** hisoblanadi. Jinoyatning bevosita fakultativ obyekti – fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlaridir.

Obyektiv tomondan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 230^1-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat, tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishlari materiallari bo’yicha dalillarni to’plash, ularni tekshirish va baholashda g’arazli va boshqa past niyatlarda, hujjatlar yoki predmetlarga bila turib yolg’on ma’lumotlar yoki tuzatishlar kiritishda ifodalanadi.

Soxtalashtirish deganda biz ashyoviy yoki yozma dalillar hisoblangan haqiqiy ma’lumotlarning buzulishini tushunamiz.

Soxtalashtirishning dalillarni yo’q qilish, hujjatga avvaldan bila turib yolg’on ma’lumotlarni kiritish, o’tkazilmagan so’roq bayonnomasini tuzish, ekspert xulosasini qalbakilashtirish, bayonnomalar yoki boshqa hujjatlarga yolg’on ma’lumotlar kiritish va ularni qalbakilashtirish, yolg’on dalillarni yasash kabi usullari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoiy-protsessual kodeksining 81-moddasi dalillarning quyidagi turlarini belgilaydi: jinoyat ishi bo‘yicha haqiqiy ma’lumotlar dalillar hisoblanadi, ularning asosida surishtiruv, tergov va sud organi qonun bilan belgilangan tartibda jamiyat uchun xavfli qilmishning mavjudligini, bu qilmishni sodir etgan shaxsning aybliligini, va ish bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun ahamiyatli boshqa holatlarni aniqlaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 85-moddasiga asosan isbotlash ishning qonuniy, asoslangan va adolatli hal etilishi uchun ahamiyatga molik holatlari haqidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdan iborat.

Isbotlashni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud amalga oshiradi.

Gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, jamoat ayblovchisi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va ularning vakillari isbotlashda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar, shuningdek Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash bilan bog‘liq huquqlarni amalga oshiruvchi va majburiyatlarni bajaruvchi boshqa fuqarolar va mansabdor shaxslar isbotlashda ishtirok etishga jalb qilinadilar (O‘zR JPKning 86-m).

Dalillar tergov va sud harakatlari: gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi va ekspertlarni so'roq qilish; yuzlashtirish; tintuv o'tkazish; guvohlantirish; ekspertiza va taftish tayinlash; murdani eksgumatsiya qilish yo'li bilan to'planadi.

Dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jinoyat jarayoni ilmida isbotlash jarayonining bosqichlari hisoblanadi.

Dalillarni soxtalashtirish tegishli "dalillar" ish hujjatlariga qo'shish uchun taqdim qilinganida tugallangan jinoyat deb e'tirof etiladi. Ya'ni, tergovchi, prokuror yoki surishtiruvni amalga oshirayotgan shaxs tomonidan dalillarning qalbakilashtirilishi vaqtidan jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Aybdor u yoki bu usulda dalillarni buzayotganini anglaydi va bu dalillarni qo‘llashni istaydi.

Maqsad va niyat g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda bo‘lishi mumkin (ishning borishidan shaxsiy yoki moddiy manfaatdorlik, hasad, xizmat manfaatlarining yolg‘on tushunchasi, qasos, yaqinlari, qarindoshlarga yordam berish istagi, aybsiz kishini hukm qilish).

Jinoyat subyekti maxsus subyekt hisoblanadi. Surishtiruvni amalga oshiruvchi yoki isbotlashga jalb qilingan shaxslar bo‘lishlari mumkin (O‘zR JPKning 86-m.). Dalillarni soxtalashtirish jinoyatining subyekti JK 17-moddasi talabiga ko'ra 18 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs.

O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jinoyat maxsus subyektiga ta’rif keltirilmagan. Bir qator nazariyotchi olimlar, jumladan Rustambayevning qarashlariga asosan **jinoyatning maxsus subyekti** - jinoyat subyekti zaruriy belgilaridan tashqari yana Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarida belgilangan va shu jinoyatlar uchun zaruriy belgi bo‘lgan qo‘shimcha belgilari ham mavjud bo‘lgan subyektdir.

Isbotlashni amalga oshiruvchi shaxslar – isbotlashning isbotlash vazifasiga ishtirokchilarning, ya’ni tergov va boshqa protsessual harakatlarni o’tkazish yo’li bilan isbotlashni amalga oshiruvchi shaxslarning doirasi – sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi hisoblanadi.

Qonunda belgilangan ma’lum yoshga to’lganlik shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning zaruriy shartlaridan biridir. Qonunda belgilangan yoshga to’lmagan shaxslar jinoyat subyekti bo’la olmaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 529 bet.

2. Ochilov X. R., Xaydarov Sh. D., Shamsidinov Z. Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O‘quv qo‘llanma – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 172 bet

3. M. Usmonaliyev Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. —T.: “Yangi asr avlodi”, 2010, – 664 b.

4. Гаухман Л.Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. 2-е изд., переработанное и дополненное. – М.: АО «Центр ЮрИнфор», 2003. – 448 Б.

5.Абдурасулова К.Р. Квалификация вымогательства, совершенного повторно // Ж. Научные труды Академии финансовой полиции. Астана. 2003. № 1. —104—114-б.